

электронное периодическое издание

ЭКОНОМИКА

и

социум

ISSN 2225-1545

№6(133)-2025



ЭЛЕКТРОННОЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ
ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ

«Экономика и социум»

iupr.ru

УДК 004.02:004.5:004.9

ББК 73+65.9+60.5

ISSN 2225-1545

Регистрационный номер
средства массовой коммуникации
Эл № ФС77 - 80454 от 01 марта 2021г.

Журнал включен в систему НЭБ (e-library) № 594-09/2013 от 26.09.2013

Тематика журнала: актуальные вопросы современной экономики и социологии - от теоретических и экспериментальных исследований до непосредственных результатов управленческой и производственной деятельности. Публикации в журнале учитываются как опубликованные работы при защите диссертаций на соискание ученых степеней России и зарубежья.

РАЗДЕЛЫ НОМЕРА:

- Основной раздел: социально-экономические аспекты развития современного государства;
- Современные технологии управления организацией;
- Актуальные вопросы политики и права;
- Современные науки и образование;
- Информационные и коммуникативные технологии;
- Здоровоохранение в обществе.

Выпуск №6(133)-1 (июнь, 2025). Сайт: <http://www.iupr.ru>

© *Институт управления и социально-экономического развития, 2025*

*Mirzoyeva I.E., g.f.f.d, PhD
katta o'qituvchisi
"Ekologiya va geografiya"
Kafedras
Buxoro davlat universiteti
Savriddinova M.I.
1-bosqich magistranti
Geografiya ta'lim yo'nalishi
Buxoro davlat universiteti*

TO'DAKO'L VA QUYIMOZOR SUV OMBORLARI ATROFIDAGI JANUBI-G'ARBIY XOJKAB GEOEKOLOGIK MIKROZONASINING EKOLOGIK HOLATI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiiy geografik rayonlashtirishning tamoyillari va uning ilmiy amaliy ahamiyati bayyon etilgan. Jumladan, Quyi Zarafshon okrugi hududida joylashgan To'dako'l va Quyimozor suv omborlari atrofini, tabiiy tarixiy rivojlanishi, yer usti tuzilishi, iqlim sharoiti, tuproq va o'simlik qoplamining o'ziga xos xususiyatlarini hamda ularning ichki farqlarini nazarda tutib janubi-g'arbiy Xojkab geoekologik mikrozonaga ajratilib o'rganilgan hamda batafsil ma'lumotlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Tabiiy geografik rayonlashtirish, provinsiya, okrug, rayon, deflyatsiya, sho'rtob, sho'rxok, tuproq, geoekologik mikrozona, ekologik muvozanat, rekreatsion resurs, buyra qamish, juzg'un.*

*Mirzoyeva I.E. Dr. of G.F.F., PhD
senior lecturer
Department of Ecology and Geography
Bukhara State University
Savriddinova M.I.
1st year master's student
Department of Geography
Bukhara State University*

ECOLOGICAL STATE OF THE SOUTH-WESTERN KHOJKAB GEOECOLOGICAL MICROZONE IN THE ATROPHY OF THE TUDAKOL AND KUIMOZAR RESERVOIRS

***Abstract:** This article describes the principles of physico-geographical regionalization and its scientific and practical significance. In particular, the territory of the Tudakul and Kuimazar reservoirs located in the territory of the Lower Zarafshan district, taking into account their natural-historical development, surface structure, climatic conditions, specific features of soil and vegetation cover,*

as well as their internal differences, was studied by dividing into the southwestern Khojka geoecological microdistrict, and detailed information was presented.

Keywords: *Physical-geographical regionalization, province, district, district, deflation, salt marsh, solonchak, soil, geoecological microzone, ecological balance, recreational resource, curly reed, juzgun.*

Tabiiy geografik rayonlashtirish geografiya fanlari tizimida geografik izlanish metodlaridan biridir. Tabiiy geografik rayonlashtirish deganda hududlarni ularning o'xshash tabiiy xususiyatlariga qarab, muayyan tizimdagi regional tabiiy geografik birliklarga ajratish tushuniladi. Tabiiy geografik rayonlashtirish odatda uch xil tamoyil asosida bo'ladi: regional, zonal va aralash. Regional tabiiy geografik rayonlashtirishda tabiatda obyektiv mavjud bo'lgan va taksonomik jihatdan bir-biri bilan bog'liq regional tabiiy geografik komplekslar (o'lkalar, provinsiyalar, okruglar, rayonlar va h.k.) ajratiladi, har bir kompleks tabiatining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi, ular tabiati tasvirlanadi hamda kartaga tushiriladi [5].

Tabiiy geografik rayonlashtirish tabiatda obyektiv mavjud bo'lgan hududiy tabiiy geografik birliklarni aniqlash, ajratish va chegaralash jarayoni hisoblanib hozirgi zamon tabiiy geografiyasi va landshaftshunosligida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tabiiy geografik rayonlashtirishning asosiy vazifasi hududlarni o'xshash va farq qiluvchi belgilariga qarab, ularni mustaqil qismlarga bo'lishdan iborat. Tabiiy geografik region nafaqat tabiiy sharoiti bilan, balki o'ziga xos tabiiy resurslari bilan ham boshqalaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham tabiiy geografik rayonlashtirish har bir hududning o'ziga xos tabiiy sharoiti va resurslarini baholashga imkon beradi, ayniqsa, tabiatda ekologik muvozanatni saqlash va ekologik muammolarning oldini olish dolzarb masala bo'lib turgan hozirgi vaqtda tabiiy geografik rayonlashtirishning ahamiyati juda katta.

O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi, jumladan, Quyi Zarafshon okrugini tabiiy geografik rayonlashtirish muammosi bilan L.S.Berg (1913, 1958), R.I.Abolin (1929), V.M.Chetirkin (1947, 1960), E.M.Murzayev (1953, 1958), P.S.Makeyev (1956), N.L.Korjenevskiy (1960), L.N.Babushkin, N.A.Kogay (1963, 1964), N.A.Gvozdeskiy (1965), P.V.Zvonkova (1965), F.N.Milkov (1977), A.A.Abdulqosimov, S.B.Abbosov (1997), I.Q.Nazarov, X.R.Toshov (2008) va boshqalar shug'ullanganlar.

O'rta Osiyo tekisliklari o'lkasining mo'tadil mintaqa cho'llari zonasining janubiy cho'llar kichik zonasi (zonachasi), Zarafshon provinsiyasining O'rta Zarafshon okrugi, Buxoro – Qorako'l tabiiy geografik rayoni hududida kiradi.

Tadqiqotimizda quyidagi taksonomik birliklar sistemasidan foydalandik: o'lka – zona – kichik zona – provinsiya – okrug – rayon – mikrorayon – mikrozona – landshaft.

Biz geoekologik rayonlashtirishda yuqorida eslatib o'tilgan tabiiy geografik rayonlashtirishning asosiy tamoyillari va usullariga amal qilib, olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlarimiz natijasida to'plangan materiallarga, tuzilgan landshaft-tipologik va landshaft-ekologik kartalarga asoslanib tabiiy va antropogen omillar ta'sirida vujudga kelgan ekologik vaziyatlarni hisobga olib tadqiqot obyektida,

jumladan, Quyi Zarafshon okrugi hududida joylashgan To‘dako‘l va Quyimozor suv omborlari atrofini, tabiiy tarixiy rivojlanishi, yer usti tuzilishi, iqlim sharoiti, tuproq va o‘simlik qoplamining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda ularning ichki farqlarini nazarda tutib Antropogen sho‘rxoklar ustida shakllangan, o‘simlik va tuproq qoplami kuchli degradatsiyaga uchragan, kuchli ifloslangan va geoekologik holati yomon Janubi-g‘arbiy Xojkab geoekologik mikrozonaga ajratilgan.[3]

Mazkur geoekologik mikrozona To‘dako‘l va Quyimozor suv omborlarini janubi - g‘arbi tomonidan Amu – Buxoro mashina kanali o‘rab turadi. Chegara Xojkab sho‘rxogi – Ahbori Vali tepaligining janubi-g‘arbiy etagi bo‘ylab Buxoro vohasi chegarasiga boradi. Shimoli-g‘arb tomondan esa chegara keskin ifodalangan bo‘lib, Buxoro vohasi bilan o‘ralgan. Mezazoy-kaynazoy tektonik strukturalarining tuzilishiga ko‘ra Quyimozor – To‘dako‘l hududi Turon platformasiga kiradi va uning janubiy chekkasini egallaydi. Aniqroq qilib aytganda Janubiy Tyanshanning Buxoro Qarshi bukilmassiga kiradi. Bu bukilma doirasida Zirabuloq – Ziyovuddin va Kogon ko‘tarilma zonasi mavjud. Mazkur ko‘tarilma zonaning g‘arbiy qismi Xojkab sho‘rxokligi deyiladi.

Xojkab pastqamligining shimoli, shimoliy-g‘arbiy qismida Xojkab tepaligi mavjud. Uning mutlaq balandligi 237 metr, janubida alohida ifodalangan orolsimon erozion tepalik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Quyimozor – To‘dako‘l hududining relyefi, umumiy olganda shimoli-sharqdan, janubi-g‘arbgacha tomon, aniqrog‘i Qoratog‘ past tog‘laridan (Chingiztog‘ 741 va 669 metr) Xojkab pastqamligi tomon pasayib boradi.

Janubiy-g‘arbiy Xojkab geoekologik mikrozonasi iqlim jihatidan subtropik belgilarga ega bo‘lgan, keskin kontinental cho‘l iqlimiga ega. Tabiiy namlik yetishmaydi. Atmosfera yog‘inlariga nisbatan mumkin bo‘lgan bug‘lanish (1200 mm), yillik harorati +14 darajaga teng. Eng past harorat yanvar oyida kuzatiladi, ya‘ni bu oyning o‘rtacha harorati 0 gradus atrofida, iyul oyi esa eng issiq o‘rtacha 28,0 – 29,0 gradus atrofida Yillik yog‘in miqdori 125 mm atrofida. Ularning yillik taqsimlanishida keskinlik bor. Atmosfera yog‘inlarning asosiy qismi bahor va qish oylariga to‘g‘ri keladi. Umuman olganda bahor sernam injiqli, yoz esa (uzoq, quruq, jazirama issiq, o‘ta yorug‘) kuz qisqa va turg‘unsiz, qish iliq, ba‘zida o‘ta ayozli sovuq. [4;34-b.].

Rayon hududidan Quyimozor, Amu – Buxoro kanali kesib o‘tgan bo‘lib, hududni suv bilan ta‘minlaydi. Kanal ta‘sirida yerosti suvlarining yer betiga chiqib, katta maydonlarda tuproqning sho‘rlanishiga sabab bo‘lgan. Bu yerda eng katta tarqalgan tuproq tipi sho‘rxok va sho‘rtob tuproqlaridir. Ularning qatlamlar bo‘yicha tabaqalanishi juda kuchsiz ifodalangan. Tuproqlarning qalinligi hudud bo‘ylab bir tekisda taqsimlanmagan chunki ularning qalin yoki yupqa bo‘lishi bevosita joyning mikrorelyef shakllari bilan chambarchas bog‘liq. O‘simliklaridan shuvoq, partak, singren, isiriq, sassiq kovrak, qora saksovul qandim, suv o‘ti, qamish, hamda efemerlar yetakchilik qiladi. Quyimozor platosidagi shag‘al koni mavjud. Qum-shag‘alni qurilish ashyosi sifatida, qazib olish maqsadida Xojkab tepaligi etagida 1966-yildan buyon qum-shag‘al zavodi ishlab turibdi. Zavod ixtiyoriga 670 gektarli qum-shag‘alli maydon ajratilgan. Qazish ishlari tufayli

hozirgi kunda 130 gektar maydonda kon sanoati relyefi hosil bo'lgan. Chuqurligi 3-4 metr keladigan ko'lmakli hovuz-xandaklar, tartibsiz yotgan sho'rlangan tuproq uyumlari oy-relyefini eslatadi. Shunday holatni Quyimozor temir yo'l stansiyasi oldida ko'rish mumkin. Buxoro vohasi chegarasida joylashgan bu texnogen landshaft 20 gektardan ortiq maydonni egallaydi. Yilning issiq va quruq davrida bunday maydonlar deflyatsiya o'chog'i bo'libgina qolmasdan, qon so'ruvchi hasharotlarning ko'payish maskani hamdir. Bunday yerlarni agrotexnik va biologik rekultivatsiya qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Ayrim pastqam joylarda taqir, sho'rtob va sho'rxok tuproqlar ham uchraydi. Barcha tuproq tiplari nihoyatda chirindiga kambag'al. Sho'rxok landshaftlardan samarali foydalanish maqsadida Quyimozor kanali bo'yida, ayniqsa, Xojkab sho'rxokligida tuz, balchiq sanatoriyasini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, bu shahar aholisiga nisbatan qulay masofada joylashgan. Ikkinchidan, tuz-balchiq terapiya xalqqa ma'lum bo'lgan an'anaviy davolash usullaridan biri bo'lib, juda foydali hisoblanadi. To'dako'l suv omborining janubiy-g'arbiy sohili rekreatsion resurslar uchun qulay imkoniyatlarga ega.

Rayon hududida landshaft hosil qiluvchi o'simliklarning geografik tarqalishi ma'lum darajada mikrorelyef shakllariga va joyning ekologik-sharoitiga moslashgan. Xojkab pastqamligining g'arbiy qismida Xojkab qishlog'i bor, mahalliy aholi tomonidan antropogen o'zgartirilgan bo'lib madaniy o'simliklardan: bug'doy, arpa, makkajo'xori, poliz ekinlari hamda mevali daraxtlar ekilgan. Shimoli-sharqiy yonbag'irlari o'simliklar ancha siyrak: jumladan, illoq, singren, sho'ra, selin hamda suv ombor sohil zonasida buyra qamish, juzg'un va boshqalardan iborat.

Rayon hududida tog'-kon sanoati va agrolandschaftlar yaxshi rivojlanganligi sababli bu yerda ekologik muvozanat kuchli o'zgargan. Janubiy-g'arbiy Xojkab geoekologik uchastkasining tashqi qiyofasi oddiy va bir xil ko'ringandek bo'lsa-da, uning landshaft-tipologik strukturasi o'ziga xos murakkablikka ega.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Баратов П.Б. Природные ресурсы Зарафшанской долины и их использование – Ташкент: Фан, 1977. –145 с.
2. Когай Н.А. Туранская физико-географическая провинция. Автореф. дис. докт. геогр. наук. – Ташкент, 1971. – 64 с.
3. Mirzoyeva I.E. To'dako'l suv ombori va unga yondosh hududlarning ekologik holatini baholash. // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 64-jild. Ilmiy jurnal. – Toshkent, 2023. –B.52-57.
4. Назараов И.Қ, Тошев Х.Р. Чўл ландшафтларини типологик таснифлашнинг асосий тамойиллари. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 32 – жилд. – Тошкент, 2008. – Б. 18 - 20.
5. Хасанов И.А., Ғуломов П.Н., Қаяумов А.А. Ўзбекистон табиий географияси (2-қисм). – Т.: “Ўқитувчи”, 2010.

Mirzoyeva I.E., Savriddinova M.I., TO'DAKO'L VA QUYIMOZOR SUV OMBORLARI ATROFIDAGI JANUBI-G'ARBIY XOJKAB GEOEKOLOGIK MIKROZONASINING EKOLOGIK HOLATI.....	537
Muratova Sh., JAMIYATDA OILAINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK O'RNI .	541
Muratova Sh., INSON EHTIYOJLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI PSIXOLOGIYASI	549
Muslimova SH.M., HOW IS LANGUAGE TRANSLATION MADE POSSIBLE	555
Musurmonov R., DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL THOUGHT AND FORMATION OF NATIONAL PEDAGOGY IN CENTRAL ASIA.....	559
Nabiyeva A. U., THE IMPORTANCE OF THE MOTIVATIONAL EFFECTS OF USING AUTHENTIC MATERIALS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING	562
Najimov Sh. R., TAJRIBADA KALAMUSHLARNING QIZILO'NGACH SHILIK PARDASIDAGI BA'ZI GISTOKIMYOVIY O'ZGARLAR.....	565
Namozova G.M., TALABALARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI	569
Niyozova Y.T., DEVELOPING STUDENTS' INTERCULTURAL COMPETENCE THROUGH THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS	574
Norova N.O., OILALI TALABALAR SHAXSINING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI DINAMIKASI.....	577
Nuriddinova M., GENDER DIFFERENCES IN SPEECH MOVEMENT OF MALE AND FEMALE.....	580
Nuritdinova X. N., DESIGNING ROLE-PLAYING GAMES FOR PRESCHOOL CHILDREN	583
Ochilova L.T., Samatova S., Omonova D.N., DEVELOPING STUDENTS' SPEECH COMPETENCE THROUGH SYNTACTIC EXERCISES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS	591
Oribjonova H.A., PRIMARY PREVENTION OF CARDIOVASCULAR COMPLICATIONS IN TYPE II DIABETES PRACTICAL INDICATORS AND RECOMMENDATIONS.....	595
Ortiqalieva F., Islomova D.A., NAMANGAN ERGONOMIYALARINING TAMOIYILLARIGA MUVOFIQ TASNIFI.....	602
Qaynarova I.V., BOSHLANG'ICH TA'LIMDA EVRISTIK TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHNING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI	609
Qo'chqarov O.A., FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIGA IQLIMINI TA'SIRI	616

ЭЛЕКТРОННОЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ
ПЕРИОДИЧЕСКОЕ МЕЖДУНАРОДНОЕ ИЗДАНИЕ

«Экономика и социум»

Выпуск № 6(133) 2025

Сайт: <http://www.iupr.ru>

Издательство: ООО "Институт управления и социально-
экономического развития", Россия, г. Саратов

Дата издания: Июнь 2025